

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**TURSUNXODJAYEVA SHIRIN ZAFAR QIZI**

**REAL SEKTOR KORXONALARIDA MOLIYAVIY RISKLARNI  
BOSHQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2021 yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавления автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Contents of Dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
economical sciences**

**Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi**

Real sektor korxonalarida moliyaviy risklarni boshqarish  
amaliyotini takomillashtirish .....3

**Турсунходжаева Ширин Зафар кизи**

Совершенствование практики управления финансовыми  
рисками на предприятиях реального сектора.....27

**Tursunkhodjaeva Shirin Zafar kizi**

Improving the practice of financial risk management at enterprises  
of the real sector.....53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....57

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**TURSUNXODJAYEVA SHIRIN ZAFAR QIZI**

**REAL SEKTOR KORXONALARIDA MOLIYAVIY RISKLARNI  
BOSHQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2021 yil**

**Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2021.1.PhD/Iqt1369 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent moliya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz(rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tfi.uz](http://www.tfi.uz)) va «ZiyeNET» axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Jumayev Nodir Xosiyatovich</b> iqtisodiyot fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Jo'rayev Abdug'affor Safarovich</b> iqtisodiyot fanlari doktori, professor <b>Xaydarov Nizomiddin Xamrayevich</b> iqtisodiyot fanlari doktori, professor
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Toshkent moliya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/30.12.2019.L17.01 raqamli Ilmiy kengashning 2021 yil «09» 11 soat 14.00 da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil 100000, Toshkent shahri, Amir Temur shoh ko'chasi, 60-A uy, tel.: (99871) 234-53-34, faks: (99871) 234-46-26, e-mail: [ilmiykengash@tfi.uz](mailto:ilmiykengash@tfi.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent moliya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (~~222~~ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil 100000, Toshkent shahri, Amir Temur shoh ko'chasi, 60-A uy, tel.: (99871) 234-53-34, faks: (99871) 234-46-26, e-mail: [admin@tfi.uz](mailto:admin@tfi.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2021 yil «09» 11 kuni tarqatildi.  
(2021 yil «09» 11 daqi 46 raqamli reyestr bayonnomasi).



*T.Z. Teshaboyev*

**T.Z. Teshaboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

*F.K. Xolmatov*

**F.K. Xolmatov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falasafa doktori (PhD), dotsent

*I.N. Ko'ziyev*

**I.N. Ko'ziyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## Kirish (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda yuz berayotgan keskin o'zgarishlar, pandemiya, globallashuv, xalqaro integratsiya va "iqtisodiy urushlar" natijasida yangi risklar vujudga kelishi jahonda YAİM 2020 yilda o'tgan yilga nisbatan 5,93% pasayishiga olib keldi.<sup>1</sup> Xalqaro valyuta fondining prognoziga ko'ra, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mamlakatlari bu inqirozning ta'siri global moliyaviy inqirozdan ham uzoqroq davom etishi, 5 yildan so'ng YaİM inqirozdan oldingi darajadan 12 foizga, rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun 9 foizga past bo'lishi, hamda inqirozdan oldingi tendentsiyaga qaytish o'n yildan ko'proq vaqtni olishi mumkinligini qayd etilgan.<sup>2</sup> YAİM tarkibida sanoat ulushining yuqoriligini (taxminiy 25%<sup>3</sup>) hisobga olsak, rivojlangan mamlakatlar ushbu muammolarni hal etishda real sektor korxonalarida moliyaviy risklarni boshqarishning muhimligini qayd etmoqda. Shu bois, muntazam ravishda real sektor korxonalarida moliyaviy risklarni boshqarish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borishning dolzarbligi yanada ortmoqda.

Jahon amaliyotida samarali korporativ boshqaruv uslubiyoti rivojlanishida real sektor korxonalarida moliyaviy risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish masalalari va ushbu amaliyot borasida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. Ushbu tadqiqotlar korxonalarida moliyaviy risklarni boshqarishda yangi boshqaruv usullarni joriy etish, statistik va matematik usullar yordamida moliyaviy risklarni baholashni takomillashtirish va yangi modellarni ishlab chiqish bilan real sektor korxonalarining moliyaviy holatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Biroq, moliyaviy risklarning turlicha talqini, ularni aniqlash, baholash va nazoratini uslubiy jihatlarini xalqaro standartlar talablari darajasida tashkil etish, hamda hisobotda aks ettirish turli darajada bo'lganligi bilan bog'liq muhim masalalar hozirgacha o'zining ijobiy yechimini topmagan.

O'zbekistonda bugungi kundagi epidemiologik vaziyat ham moliyaviy risklarni boshqarishni katta e'tibor berish lozim bo'lgan dolzarb masalalar sirasiga kiritdi. Misol uchun, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi o'sish nisbati 2020-yilda 2019-yilga nisbatan 4% past darajani qayd etdi.<sup>4</sup> Shu bois, moliyaviy risklarni samarali boshqarish usullarini joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2021 yil 20 avgust kuni tadbirkorlar bilan ochiq suhbat o'tkazish davomida, tadbirkorlar oldidagi muammolar to'g'risida 15 mingdan ortiq murojaat kelib tushgani, shundan 40% moliyalashtirish va moliya-kredit, xususan valyuta risklari bilan bog'liqligini qayd etdi.<sup>5</sup> Mazkur muammolarni hal etishda moliyaviy risklarning boshqarilishi, nazorati va tahlili uslubiyotini xalqaro tajribalar asosida rivojlantirish lozimligi tanlangan tadqiqot mavzusini dolzarbligini belgilaydi.

<sup>1</sup> <https://www.macrotrends.net/countries/WLD/world/gdp-growth-rate>

<sup>2</sup> <https://www.imf.org/en/News/Articles/2020/11/18/na111920-how-the-middle-east-and-central-asia-can-limit-economic-scarring-in-the-wake-of-covid19>

<sup>3</sup> <https://data.worldbank.org/indicator/NV.IND.TOTL.ZS>

<sup>4</sup> <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2>

<sup>5</sup> <https://president.uz/uz/lists/view/4550>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni, 2018 yil 13 dekabrda PF-5589-son “O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni, 2015 yil 28 iyuldagi 207-son “Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 14 dekabrda 1013-son “Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlari” doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Korxonalarda moliyaviy risklarni boshqarish amaliyotining paydo bo‘lishi va rivojlanishining umumnazariy jihatlarini xorijiy mamlakatlar olimlardan I.T.Balabanov, I.A.Blank, R.F.Berdnikova, L.Y.Laskina, V.V.Kovalyov, O.S.Baydin, N.B.Ermasova, A.S.Shapkin, V.M.Granaturov, I.V.Korchagina, L.N.Korchagin, G.A.Holton, S.E.Boermans, K.Panigrahi, A.Arif, A.Showket, V.Gonzalez, R.Antunes, R.d.S.Targinolar<sup>6</sup> ilmiy ish olib borganlar.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan Sh.Abdullayeva, A.Vahobov, F.Mirzayev, Q.Muftaydinov, K.Karimova, K.Sharifxodjayeva, B.Mamatov, B.Toshmuradova, R.Karlibayeva, S.Elmirzayev, G.Baymuratova<sup>7</sup> va boshqalarning asarlarida moliyaviy risklarni boshqarishni nazariy va tashkiliy-uslubiy jihatlarini o‘rganilgan.

---

<sup>6</sup> И.Т.Балабанов.Основы финансового менеджмента.учеб. пособие.М.:Финансы и статистика, 2002; И.А.Бланк.Управление финансовыми рисками.М.: Ника-Центр, 2005; Р.Ф.Бердникова.Исследование экономического содержания предпринимательских рисков. Государство и регионы,2012; Л.Ю.Ласкина.Финансовый риск:терминологические проблемы и измерение.Финансы и кредит,2010 46-с.; В.В. Ковалев.Корпоративные финансы и учет. Понятия, алгоритмы,показатели.М.: Проспект, 2014; О.С.Байдина, Е.В.Байдин.Финансовые риски: природа и взаимосвязь.Деньги и кредит,2010.; Н.Б.Ермасова. Риск-менеджмент организации.М.: Дашков,2013; А.С.Шапкин. Экономические и финансовые риски предприятия. Оценка, управления портфель инвестиции. М.:2003; В.М.Гранатуров. Экономический риск: сущность, методы измерения, пути снижения.Учебное пособие. М: Дело и сервис,2002.; И.В.Корчагина, Р.Л.Корчагин. управление финансовыми рисками технологического предпринимательства в инновационной экосистеме региона. Монография. Новосибирск:2019; G.A.Holton. Defining risk. Financial Analysts Journal, 2004; S.E.Boermans.Factors affecting the performance of foreign banks in Malaysia. Unpublished Master Project, College of Business, 2011; K.Panigrahi. Factors affecting bank profitability in Pakistan. The Romanian economic journal, 2013.;A.Arif, A.Showket. Relationship between financial risk and financial performance: An Insight of Indian Insurance Industry. International Journal of Science and Research, 2015; V.Gonzalez, R.Antunes. A Production Model for Construction: A Theoretical Framework. February 2015; R.d.S.Targino. Statistical Methods in Financial Risk Management. A dissertation submitted in partial fulfillment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy of the University College London. Department of Statistical Science University College London. April 19, 2017.

<sup>7</sup> Sh.Z.Abdullayeva.Bank risklari sharoitida tijorat banklarining kredit portfelini diversifikatsiyalash: i.f.d.diss.avtoref.- T:BMA,2000. A.O‘lmasov, A.Vahobov. Iqtisodiyot nazariyasi.Darslik.T:Sharq,2006; F.I.Mirzayev, Moliyaviy risklarning turlari, tasnifi, boshqarish va baholash usullari. - T.: Moliya, 2006; Q.Muftaydinov, Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari. I.f.d. diss. avtoreferati. - Andijon, 2004; K.D.Karimova.Kichik biznes korxonalarini moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda risklarni boshqarish. I.f.n. dis.avtoref.T:2008; K.U.Sharifxodjayeva.Risklarni kichik biznes korxonalarini foydasiga ta‘sirini baholash va kamaytirish. Iq. I.f.n. dis.avtoref. T:2010; B.Mamatov,D.Xujamkulov,O.Nurbekov.Investitsiyalarni

Iqtisodchi olim va mutaxassislarning asarlarida “moliyaviy risk” mohiyati va uni boshqarish bosqichlari atroflicha tadqiq qilingan. Lekin, real sektor korxonalarida moliyaviy risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish masalasi, shuningdek moliyaviy risk darajasi tahlili real sektor korxonalarini misolida tadqiq qilinmagan. Ushbu dolzarb masalalarning ilmiy yechimini topish dissertatsiya mavzusini tanlash, uning maqsadi va vazifalarini belgilash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya ishini Toshkent moliya instituti ilmiy ishlari rejasining “Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** real sektor korxonalarini moliyaviy risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

moliyaviy risklarni mohiyati, tashkiliy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqish;

moliyaviy risklarni samarali boshqarishda standartlashtirish jarayonini ro‘lini aniqlash va xorijiy tajribadan foydalanish istiqbollari belgilash;

real sektor korxonalariga ta‘sir etuvchi moliyaviy risklarni amaldagi holatini o‘rganish va baholash;

real sektor korxonalarini moliyaviy risklarni boshqarish amaliyotini o‘rganish va takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

moliyaviy risk boshqarishni integratsion tizimiga o‘tish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

real sektor korxonalarida moliyaviy risklarni raqamli texnologiyalar orqali boshqarishga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

real sektor korxonalarida moliyaviy risklarni boshqarishning “3 mudofaa chizig‘i” modelini ishlab chiqqan holda tashkillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O‘zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan real sektor korxonalarini olingan.

**Tadqiqotning predmeti** real sektor korxonalarini moliyaviy risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirishda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada guruhlash, taqqoslash, ilmiy tafakkur, iqtisodiy-statistik, tadqiqot ob‘ektlari va olingan natijalarni bayon qilish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy risk darajasini 6 toifada (1-toifa 100-97 ball – mutloq barqaror; 2-toifa 96-80 – yuqori me‘yor;

---

tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. T: Iqtisod-moliya, 2014; B. Toshmurodova. Moliyaviy menejment. Darslik. T.: Iqtisod-moliya, 2014; R. Karlibayeva. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimini samarali tashkil etish yo‘llari. I.f.d. dis. avtoreferati. T., 2018; S.E. Elmirzayev. Korporativ moliya. Darslik. T: Iqtisod-Moliya, 2019; G.T. Baymurotova. Moliyaviy risklarni sug‘urtalashni takomillashtirish. PhD. dis. avtoref. T: 2021.

3-toifa 79-67 – o‘rta me‘yor; 4-toifa 66-37 – qoniqarli; 5-toifa 36-11 – nobarqaror; 6-toifa 10-0 inqirozli) baholash taklif etilgan;

“Qo‘qon mexanika zavodi” AJda moliyaviy riskning har bir turi bo‘yicha alohida yondashuv asosida bir aksiya uchun moliyaviy risk darajasi optimal o‘rtacha 10% dan oshmasligi asoslangan;

korxonada sof foydasining kamida 5 foizi miqdorida har yilgi majburiy ajratma qilish orqali ustav fondining 5 foiz miqdorida zaxira fondining shakllantirish asosida moliyaviy risk oqibatlarini salbiy ta‘sirini oldini olish asoslangan;

moliyaviy risklarni boshqarish maqsadida qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida “Moliyaviy risklarni boshqarish” bo‘linmasini tashkil etishning maqsadga muvofiqligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Respublikada moliyaviy risklarni boshqarishning hozirgi holati o‘rganib chiqilgan va moliyaviy risklar darajasi baholangan;

real sektor korxonalarida moliyaviy risklarini boshqarishni xalqaro standartlarga muvofiq integratsion boshqaruviga o‘tish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

real sektor korxonalarida moliyaviy risklarni boshqarish bo‘yicha raqamlashtirilgan tizimlarni tanlash va joriy etish ahamiyati asoslangan;

real sektor korxonalarida moliyaviy risklarni boshqarishni tashkillashtirishda “3 mudofaa chizig‘i” modelidan foydalanish samaradorligi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** amalga oshirilgan yondashuv, usullar va nazariy ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba–sinov ishlari samaradorligining matematik–statistik ishonchlilik intervalida tekshirilganligi, statistik qonuniyatlarda keltirilgan ishonchlilik talablariga javob berishi, real sektor korxonalarining amaliy ma‘lumotlariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflar real sektor korxonalarida moliyaviy risklarni boshqarishning nazariy va tashkiliy–uslubiy jihatlarini xalqaro amaliyot tajribalaridan kelib chiqqan holda takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan real sektor korxonalarida moliyaviy risklarni boshqarish jarayonida qo‘llaniladigan usullarni tizimlashtirish va asoslashda, moliyaviy risklarni aniqlashda va zarar darajasini hisoblashda, ularni hisobotda ishonchli aks ettirishda, boshqaruv ma‘lumotlarini shakllantirishda, hamda moliyaviy risklarni boshqarishda yo‘riqnoma sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Real sektor korxonalarida moliyaviy risklarini boshqarish amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy risk darajasini 6 toifada (1-toifa 100-97 ball – mutloq barqaror; 2-toifa 96-80 – yuqori me‘yor; 3-toifa 79-67 – o‘rta me‘yor; 4-toifa 66-37 – qoniqarli; 5-toifa 36-11 – nobarqaror; 6-toifa 10-0 inqirozli) baholash taklifi “Qo‘qon mexanika zavodi” aksiyadorlik jamiyatida moliyaviy risklarni baholashda foydalanilgan (“Qo‘qon mexanika



zavodi” aksiyadorlik jamiyatining 2021 yil 18 maydagi 47-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish natijasida korxonada moliyaviy risklarni samarali boshqarish imkoni yaratilgan;

“Qo‘qon mexanika zavodi” AJda moliyaviy riskning har bir turi bo‘yicha alohida yondashuv asosida bir aksiya uchun moliyaviy risk darajasi optimal o‘rtacha 10% dan oshmasligi yuzasidan berilgan taklifi “Qo‘qon mexanika zavodi” aksiyadorlik jamiyatini xalqaro standartlariga muvofiq moliyaviy risklarning integratsion boshqaruv tizimiga o‘tish jarayonida foydalangan (“Qo‘qon mexanika zavodi” aksiyadorlik jamiyatining 2021 yil 18 maydagi 47-son ma‘lumotnomasi). Natijada, korxonaga salbiy ta‘sir etuvchi moliyaviy risklarni yuzaga keltiruvchi omillariga qarshi boshqaruv yondashuvi ishlab chiqish asosida moliyaviy risk darajasini past darajada ushlab qolishga erishilgan;

korxonada sof foydasining kamida 5 foizi miqdorida har yilgi majburiy ajratma qilish orqali ustav fondining 5 foiz miqdorida zaxira fondini shakllantirish taklifi “Qo‘qon mexanika zavodi” aksiyadorlik jamiyati strategik biznes rejasida o‘z aksini topgan (“Qo‘qon mexanika zavodi” aksiyadorlik jamiyatining 2021 yil 18 maydagi 47-son ma‘lumotnomasi). Natijada, moliyaviy zararlarni yuzaga kelishini oldini olishni moliyaviy ta‘minoti shakllantirilgan. Shuningdek, moliyaviy risklar boshqaruvini raqamlashtirish hisobiga moliyaviy risk oqibatlarini salbiy ta‘sirini kamaytirish imkoni yaratilgan;

moliyaviy risklarni boshqarish maqsadida qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida “Moliyaviy risklarni boshqarish” bo‘linmasini tashkil etish taklifi “Qo‘qon mexanika zavodi” aksiyadorlik jamiyatining tarkibiy tuzilmasida o‘z aksini topgan (“Qo‘qon mexanika zavodi” aksiyadorlik jamiyatining 2021 yil 18 maydagi 47-son ma‘lumotnomasi). Natijada moliyaviy riskni aniqlash, boshqarish va kamaytirish imkoni yaratilgan, hamda moliyaviy risk nazoratini kuchaytirish maqsadida “3 mudofaa chizig‘i” modeli shakllantirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 6 ta respublika va 6 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarni asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta ilmiy maqola, shundan 3 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 140 betni tashkil etgan.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusininng dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmetlari shakllantirilgan, ishning respublika ilm-fani va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlariga mos kelishi ko‘rsatib o‘tilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini

amaliyotga joriy etish haqidagi, shuningdek, nashr qilingan asarlar va dissertatsiya tarkibi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Moliyaviy risklar va ularni boshqarishning nazariy asoslari”** deb nomlangan bobida moliyaviy risklar tushunchasi, unga berilgan ta'riflar olimlar yondashuvlari, ularni real sektor korxonalarida boshqarish bosqichlari ko'rib chiqilgan. Quyidagi jadvalda moliyaviy risklarni to'g'risidagi olimlarining qarashlari aks ettirilgan. (1-jadvalga qarang). Shunga ko'ra, 1-guruh vakillari moliyaviy risklarni moliyaviy resurslarni yoqotish bilan bog'liqligini e'tirof etishgan. Fikrimizcha, ushbu ta'rif bir tomonlama yondashilgan, ya'ni moliyaviy risk kutilmagan daromadga ham olib kelishi mumkin. 2-guruhga kiruvchi olimlar, moliyaviy risklarni spekulativ risk sifatida qarashgan. Bu guruh vakillari, moliyaviy risklar aynan daromad keltiruvchi funksiyasini ham ajratib ko'rsatgan bo'lsalarda, moliyaviy risklarni ichida aynan sof risklar borligi uning tasniflarida turli olimlar tomonidan keng yoritilgan. Shu munosabat bilan, moliyaviy risk ta'rifida uning faqatgina spekulativ risk sifatida ko'rish maqsadga muvofiq emas deb hisoblaymiz. 3-guruh vakillari, moliyaviy risklar ta'rifida prognozlash nuqtai nazaridan yondashganlar. Misol uchun, K.D.Karimova moliyaviy risklarni prognoz qila olish mumkin deb qarasa, L.A.Kormishkina prognoz qilish mumkin emas deb baholaydi. Bizning fikrimizcha, moliyaviy risk keng qamrovli murakkab tushuncha bo'lib, uni keltirib chiqaruvchi omillari shu qadar turliki, bu omillarni boshqarib bo'lishi va boshqarib bo'lmazligi mumkin. Shunga qaramay, moliyaviy risk deganda, hisoblash mumkin bo'lgan ehtimollik tushuniladi. 4-guruhga kiruvchi iqtisodchi olimlar, moliyaviy risk deganda, noaniqlik sharoitida qaror qabul qilishni tushunishadi. Albatta, moliyaviy riskda obyektiv omillar subyektiv baholanadi. Demak, ular vujudga kelganda muqobil variantlardan birini tanlash va qaror qabul qilishga to'g'ri kelishi tabiiydir. Ammo, moliyaviy risk faqat qaror qabul qilish jarayonida, yoki u vujudga kelib bo'lgandan keyin amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanmaydi. Moliyaviy risklarni qaror qabul qilinmasada, doimiy ravishda monitoring qilish va baholab borish darkor. 5-guruh vakillari, korxonada moliyaviy risklar uning tashqi muhit bilan aloqasi natijasida vujudga keladi deb hisoblashgan. Ammo bizning fikrimizcha, moliyaviy risklar nafaqat tashqi ta'sir natijasida vujudga keladi, balki, ichki muhit ta'siri ham katta ahamiyat kasb etadi. Zero, hozirda korporativ boshqaruvni amalga oshirayotgan yirik korporatsiyalar faoliyat ko'lami keng va ichki moliyaviy risklarni vujudga kelish ehtimoli ham yuqori hisoblanadi. 6-guruhga kiruvchi olimlar, moliyaviy risklarni turli o'zgarishlar bilan bog'laydilar. Bu fikr mantiqan to'g'ri bo'lishi mumkin, ammo o'zgarish yuz bermasa korxonada daromad olish ehtimolligi ham pasayadi. Bu esa o'z navbatida, turli moliyaviy risklar ko'rinishida talofat yetkazishi ehtimolligini yuzaga keltiradi. 7 guruh iqtisodchi olimlari, moliyaviy risklar mablag' yetishmovchiligi natijasi ekanligini ta'kidlashadi. Bu tushuncha ham moliyaviy risklarning butun xususiyatini ochib bermagan deb hisoblaymiz. Zero, katta mablag'ga ega korxonada moliyaviy risk darajasi ham yuqori bo'ladi. Yuqoridagi olimlar fikrlarini umumlashtirgan holda shunday fikr qilish mumkinki, moliyaviy risk deb, moliyaviy-xo'jalik faoliyatda doimiy mavjud bo'lgan, kutilayotgan daromadni ololmaslik yoki kutilmagan daromadga erishish ehtimolligi hisoblanadi.

Moliyaviy risk tushunchasiga asosiy nazariy yondashuvlarni guruhlash<sup>8</sup>

Guruh	Olimlar	Ta'rif
I	A.O'Imasov, A.Vahobov	bu firmaning ko'zlangan maqsadga erishish yo'lida u duch keladigan iqtisodiy xavf-hatardir. [66]
	B.Mamatov	Moliyaviy resurslarni, ya'ni pul shaklidagi resurslarni yoqotish xavfi. [82]
	I.A.Blank	noaniqlik holatida kapitalni yo'qotish shaklida salbiy moliyaviy oqibat. [64]
	A.S.Shapkin	pul qiymatliklarini yoqotish yoki ololmaslik ehtimoli. [36]
	D.V.Domashchenko	moliyaviy resurslarni (naqd pul) yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq risk. [73]
	S.N.Makarova	bu korxonaning moliyaviy strategiyasining riski bo'lib, u qimmatli qog'ozlarning rentabelligini yo'qotish miqdorida ifodalanishi mumkin. [15]
	A.F.Ionova	bu tashkilotning moliyaviy faoliyati sharoitida noaniqlik holatida kutilmagan moliyaviy yo'qotishlarning yuzaga kelish ehtimoli. [85]
	Rodrigo dos Santos Targino	miqdoriy baholash o'tkazish mumkin bo'lgan, daromadni yoqotish yoki kutilganidan kam olish ehtimolligi. [30]
II	L.P.Belyx	bu makroiqtisodiy (ekzogen) va intrafirma (endogen) omillar va sharoitlar ta'sirida daromadni yo'qotish yoki olish riskini anglatadi. [50]
	I.T.Balabanov	spekulyativ risklardir. Uning xususiyati bu moliya, kredit va birja sohasida har qanday operatsiyalarning mohiyatidan kelib chiqadigan riskidir. [55]
	E.Yu.Davidova	bu ijobiy va salbiy natijalarga erishish mumkin bo'lgan spekulyativ risk, u tabiatda xavfli bo'lgan operatsiyalar natijasida zarar yetkazish ehtimoli. [87]
	E.Yu.Fayantseva	bu korxonaning moliyaviy faoliyatidan kutilganidan ko'proq foyda yoki zarar olish ehtimoli. [29]
III	K.Karimova	firmaning murakkab, lekin o'zini oqlagan sug'urtalanadigan, taxminlashtiriladigan riskidir. [21]
	L.A.Kormishkina	bu asosli prognoz qilib bo'lmaydigan moliyaviy korxonaning xavfsizligiga tahdidlar. [86]
IV	S.E.Elmirzayev	belgilangan maqsadlarni amalga oshirishning noaniqligi sharoitida moliyaviy menejerlar tomonidan qabul qilingan muqobil moliyaviy qarorlarni tanlashning iqtisodiy zararlar keltirish ehtimolini o'zida aks ettiradi. [91]
	A.V.Gukova	bu ko'plab tasodifiy omillarning ta'siri bilan, ularning natijalarining yuqori darajadagi noaniqligi sababli, moliyaviy operatsiyalar natijasida kelib chiqadigan moliyaviy yo'qotishlar yoki yo'qotilgan foydaning riskidir. [46]
	N.A.Pimenov	menejerlari tomonidan amalga oshiriladigan shartlarning noaniqligi sababli iqtisodiy zarar ehtimoli bilan moliyaviy faoliyatning kerakli maqsadli natijasiga erishishga qaratilgan muqobil moliyaviy yechimni tanlash natijasidir. [88]
V	E.A.Utkin	bu korxonaning banklar va boshqa moliya institutlari bilan munosabatlari sohasida yuzaga keladigan risk. [58]
	G.B.Polyak	bu korxonada va moliya institutlari o'rtasidagi munosabatlar jarayonida yuzaga keladigan spekulativ risk. [68]
VI	E.S.Stoyanova	bu aktivlar va majburiyatlarni boshqarish, shuningdek soliq bazasi va soliq stavkalari, foiz stavkalari va boshqalar o'zgarishi bilan bog'liq risklar. [59]
	G.A.Holton	ko'pincha daromadlarning kutilmagan o'zgaruvchanligi. [37]
	V.Gonsales	bu korxonada yoki mol-mulkning qarzi va kapitalining birlashishi bilan bog'liq bo'lgan noaniqlik darajasi. [44]
VII	S.E.Boermans	korporativ institutlarning o'z majburiyatlarini bajarish uchun ishlatish uchun yetarli mablag'ga ega emasligi. [40]
	K.Panigraha	korxonaning paydo bo'lgan pul oqimlari natijasida kutilgan va kutilmagan pul talabini qondira olmasligi. [41]
	A.Arif, A.Showket.	moliyaviy majburiyatlarini bajarishlari uchun pul mablag'lari oqimi yetarli bo'lmagan taqdirda, qarzdari foydalanib, o'z pullarini yo'qotishi. [43]

Aynan korxonalar faoliyatiga ta'sir etuvchi moliyaviy risklarni o'rgangan ilmiy ishlanmalardan quyidagi milliy iqtisodchi olimlarning ishlarini tadqiq etish muhim hisoblanadi. (2-jadvalga qarang)

<sup>8</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Mahalliy iqtisodchi olimlar ilmiy ishlanmalari bilan qiyosiy jadval<sup>9</sup>

	K.D.Karimova	K.U.Sharifxodjaeva	G.T.Baymuratova	Sh.Z.Tursunxodjaeva
<b>Himoya qilingan yil</b>	2008	2010	2021	2021
<b>Risk tushunchasi</b>	iqtisodiy erkinlik, ixtiyoriylik uchun to'langan xaqdir.	risk - bu kutilishi mumkin bo'lgan omad yoki xatar	ko'p qirrali va noaniq hodisa	risk – bu qo'rquvdir
<b>O'rgangan risk turi</b>	Moliyaviy barqarorlikka ta'sir ko'rsatuvchi riski	Foydaga ta'sir ko'rsatuvchi risklar	Sug'urtalanuvchi moliyaviy risklar	Moliyaviy risk
<b>Tadqiqot obyekti</b>	Kichik biznes subyektlari	Kichik biznes subyektlari	Sug'urta tashkilotlari va korxonalar moliyaviy risklari	Real sektor korxonalari
<b>Moliyaviy risk turlari</b>	12 ta	3 ta	5 ta	15 ta
<b>Boshqarishning optimal metodi</b>	Diversifikatsiya; Sug'urtalash.	Sug'urtalash; Davlat tomonidan kafolatlash	Sug'urtalash	Xar bir tur bo'yicha alohida yondashuv
<b>Baholashning optimal metodi</b>	Miqdoriy baholash (statistik)	Miqdoriy baholash	Miqdoriy baholash (statistik)	Kompleks baholash

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ushbu mavzu, ya'ni korxonalarda moliyaviy risklarni boshqarishga dahldor ilmiy ishlanmalarga qo'l urish yaqin o'tmishdan boshlangan, hamda juda ozchilikni tashkil etar ekan. Shunga qaramay, bu soha yillar davomida rivojlanib kelmoqda.

Quyidagi jadvalda turli olimlar tomonidan qanday risklarni moliyaviy risk sifatida e'tirof etishligini ko'rish mumkin. (3-jadvalga qarang). Moliyaviy risklarni birinchi bo'lib, J.M.Keyns tasniflashga erishgan. Keyinchalik yildan yilga, globallashtirish va xalqaro integratsiyalashuv jarayonida moliyaviy risk turlari ham kengayib bordi. Yangi-yangi xavflar yangi moliyaviy risk turlarini ko'payishiga turki bo'ldi. Yuqoridagi olimlar fikriga qo'shilgan holda, kriminogen risklarni moliyaviy risk emas balki, yuridik risk sifatida qaraldi va operatsion risklar real sektor korxonalari uchun moliyaviy holatiga ta'siri yuqoriligini hisobga olgan holda ularni moliyaviy risk sifatida e'tirof etilgan.

Real sektor korxonalarining moliyaviy risk boshqaruvi doiraviy va davomiy xususiyatga ega bo'lib, u korxonaning barcha biznes jarayonlari va loyihalarini o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra, korxonalarda moliyaviy risklarni boshqarish bosqichlari quyidagi o'zaro bog'liqlikdagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: (1-rasmga qarang)


Real sektor korxonalarida ushbu uzviylikni ta'minlash, korxonalar moliyaviy-xo'jalik jarayonining barcha bosqichlariga integratsiya qilish uchun xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish zarur.

<sup>9</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Moliyaviy risk turlari<sup>10</sup>

Mualliflar \ Moliyaviy risk	Tadbirkorlik	Valyuta	Kredit	Foiz	Likvidlik	Narx	Moliyaviy barqarorlikni kamayish	Investitsion	Innovatsion	Deposit	Inflyatsion	Selektiv (portfel)	Bozor	Soliq	Kriminoegen	Operatsion
J.M.Keyns [57]	+	+	+													
J.Sink [70]			+	+	+											
O.A.Kandinskaya [53]		+		+		+										
I.T.Balabanov [55]	+				+			+								
I.A.Blank [64]		+	+	+	+	+	+	+	+	+						
Yu.F.Brigham [72]		+	+	+						+						
A.A.Alimov [19]		+	+					+			+					
A.V.Vahobov [66]		+		+								+				
G.A.Holton [37]			+		+								+			
N.N.Malashixina [62]		+	+		+			+	+		+	+	+			
N.V.Sokolova [20]		+	+	+	+		+	+		+	+	+	+	+		
K.U.Sharifxodjayeva [22]		+									+			+		
K.V.Baldin [71]		+	+	+	+	+	+	+	+		+			+		
X.A.Abasova [26]		+	+	+	+	+	+	+		+	+			+		
K.D.Karimova [21]		+	+	+	+			+		+	+			+	+	
K.Xelderovich [60]			+	+	+		+	+		+	+			+	+	
GARP [48]	+		+		+							+	+			+
G.T.Baymuratova [23]		+	+	+	+								+			
Tadqiqotchi	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	-	+

<sup>10</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqildi.



**1-rasm. Moliyaviy risklarni boshqarish bosqichlari tarkibi<sup>11</sup>**

XX asr 90-yillarining boshida jahon tajribasida moliyaviy risklarni boshqarish sohasida standartlarini shakllanishi kuzatildi. Real sektor korxonalarida moliyaviy risklarni boshqarishni ushbu xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish quyidagi ijobiy tomonlarni keltirib chiqaradi:

- maqsadlarga erishish ehtimolini oshirish;
- moliyaviy riskni aniqlash va taʼsir chorasini koʻrish;
- imkoniyatlar va risklarni aniqlashni takomillashtirish;
- tegishli huquqiy va meʼyoriy talablarga rioya qilish;
- moliyaviy hisobotni takomillashtirish;
- nazoratni takomillashtirish;
- manfaatdor tomonlarning ishonchini yaxshilash;
- boshqaruvni takomillashtirish;
- qaror qabul qilish va rejalashtirish uchun ishonchli asosni yaratish;
- resurslarni samarali ravishda taqsimlash va ulardan foydalanish;
- operatsion samaradorlik va natijadorlikni oshirish;
- yoʻqotishlarni oldini olish va hodisalarni boshqarishni takomillashtirish
- yoʻqotishlarni minimallashtirish
- tashkiliy barqarorlikni oshirish va boshqalar.

Quyidagi jadvalda 4 ta moliyaviy risklarni boshqarish standartlari oʻrtasidagi farqlar taqqoslangan. (4-jadvalga qarang). Ushbu jadval maʼlumotlaridan shuni bilish mumkinki, ayrim standartlar (AS/NZS 4360, FERMA, ISO 31000:2009) tavsiyaviy xarakterga ega boʻlsa, ayrimlari (COSO ERM) majburiy xarakterga ega ekan. Ayrim standartlar (AS/NZS 4360, ISO 31000:2009), faoliyat sohasi belgilanmagan, yaʼni bu standartdan davlat, xususiy yoki jamoat korxonasi, uyushma, korxonalar guruhi yoki alohida korxonalar foydalanishi mumkin boʻlsa, ayrimlari (FERMA, COSO ERM) aniq bir faoliyat yohud tarmoqqa ixtisoslashtirilgan holda tuzilgan va ular mutaxassislar tomonidan boshqarilishi lozim boʻladi. Shuning uchun, Oʻzbekiston iqtisodiyotiga COSO hamda ISO31000:2009 standartlaridan foydalanish samarali boʻlishi kutilmoqda.

<sup>11</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Moliyaviy risk standartlarini taqqoslash<sup>12</sup>

Parametr	AS/NZS 4360	COSO ERM	FERMA	ISO 31000:2009
Joylashuv ko'lam	Avstraliya va Yangi Zelandiya	AQSh	Evropa	Xalqaro
Manzilligi	Muayyan sanoat sohasiga ixtisoslashmagan	Moliyaviy va risk menejeri	Malakali risk-menejerlar	Muayyan sanoat sohasiga ixtisoslashmagan
Majburiyligi	Majburiy emas, tavsiya uchun ishlab chiqarilgan	Nyu-York fond birjasida aksiyalari kotirovka qiluvchilar	Majburiy emas, tavsiya uchun ishlab chiqarilgan	Majburiy emas, tavsiya uchun ishlab chiqarilgan
Risk tushunchasi	Maqsadga erishish yo'lida nimadir paydo bo'lish ehtimoliga	Voqealar ta'siri salbiy bo'lib, qiymat yaratilishga to'sqinlik qiladi yoki uni kamaytiradi	Voqea ehtimoli va uning oqibatlari birlashmasi	Noaniqlikning korxonaning maqsadlariga ta'siri. Ta'sir kutilayotgan natijadan chetga chiquvchi ijobiy yoki salbiy oqibatlarga olib keladi
Risk boshqaruvi tushunchasi	Ehtimoliy imkoniyatlardan foydalanayotgan bir vaqtda, salbiy ta'sirlarni boshqarishga yo'naltirilgan madaniyat, jarayon va tizimning umumiy tushuniladi	Strategiyani ishlab chiqishdan tortib, korxonaning barcha faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan boshqaruv kengashi, menejerlar va boshqa xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan jarayon. Korxonada ushbu hodisalar bilan bog'liq riskni tashkil etish va boshqarishga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan voqealarni aniqlashga, shuningdek, korxonaning "risk ishtahasi" oshib ketmasligi va korxonada maqsadlariga erishish uchun "oqilona kafolat" berishga qaratilgan	Korxonada har bir qadaming samaradorligini va shunga mos ravishda butun faoliyatni maksimal darajada oshirish uchun har bir faoliyat turi riskini tizimli ravishda tahlil qiladi	Korxonada risklarini boshqarish va nazorat qilish uchun muvofiqlashtirilgan harakatlar
"Risk ishtaxasi"	Bu tushuncha yoritilmagan	Daromad olish jarayonida korxonada o'zi uchun maqbul deb hisoblaydigan risk darajasi.	Bu tushuncha yoritilmagan	Korxonada istagan yoki ushlab turishga tayyor bo'lgan risk turi va uning miqdori
Boshqarish bosqichlari	Maqsad qo'yish; Riskni aniqlash; Risk tahlili; Riskni baholash; Riskni boshqarish; Nazorat qilish va ko'rib chiqish; Muloqot;	Maqsadni aniqlash; Riskli hodisalarni aniqlash; Riskni baholash; Riskka javob qaytarish; Nazorat vositalari; Axborot va aloqa; Monitoring.	Maqsad; Baholash; Hisobot; Qaror qabuli; Kamaytirish; Takroriy hisobot.	Ma'lumot almashish va konsultatsiya; Holatni aniqlash; Baholash; Riskka ta'sir qilish; Monitoring;
Riskni boshqarish metodlari	Qochish; O'tkazish; Risk ehtimolini kamaytirish; Risk oqibatlarini kamaytirish.	Riskdan saqlanish; Riskni qisqartirish; Riskni taqsimlash; Riskni qabul qilish.	Risk nazorati; Ogohlantirish; Transfer; Moliyalash.	Qochish; Qabul qilish; manbasini yo'qotish; Imkoniyat o'zgartirish; taqsimlash; Ushlash.

<sup>12</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning “**Real sektor korxonalarida moliyaviy risklarni boshqarishning amaldagi holati tahlili**” deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan 3 ta aksiyadorlik jamiyatlarining 5 yillik faoliyat natijalari hamda, ularda moliyaviy risklarni boshqarish borasidagi amaliyoti tahlil etilgan.

Amaliyotda real sektor korxonalarining moliyaviy risklarini baholashda integral balli tizimdan foydalaniladi. Bu korxonaning umumiy moliyaviy holatini risklilik darajasiga ko‘ra baholashga imkon beradi. Bu baholash mezonni quyidagi jadval ma‘lumotlari asosida ishlab chiqiladi. (5-jadvalga qarang)

### 5-jadval

#### Moliyaviy risklarni baholashning integral balli tizimi<sup>13</sup>

Moliyaviy holat ko‘rsatkichi	Ko‘rsatkich reytingi	Mezon		Mezonni pasaytirish shartlari
		Yuqori	Quyi	
Mutloq likvidlik ( $L_1$ )	20	0,5 va yuqori - 20 ball	0,1 dan kam - 0 ball	0,5 qaraganda xar 0,1 punktga past bo‘lsa balldan olish 4 ball
Oraliq likvidlik ( $L_2$ )	18	1,5 va yuqori - 18 ball	1 dan kam - 0 ball	1,5 qaraganda xar 0,1 punktga past bo‘lsa balldan olish 3 ball
Joriy likvidlik ( $L_3$ )	16,5	2 va yuqori - 16,5 ball	1 dan kam - 0 ball	2 qaraganda xar 0,1 punktga past bo‘lsa, 1,5 balldan olish
Moliyaviy mustaqillik ( $U_1$ )	17	0,5 va yuqori - 17 ball	0,4 dan kam - 0 ball	0,5 qaraganda xar 0,1 punktga past bo‘lsa, 0,8 balldan olish
O‘z mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik ( $U_2$ )	15	0,5 va yuqori - 15 ball	0,1 dan kam - 0 ball	0,5 qaraganda xar 0,1 punktga past bo‘lsa, 3 balldan olish
Moliyaviy barqarorlik ( $U_3$ )	13,5	0,8 va yuqori - 13,5 ball	0,5 dan kam - 0 ball	0,8 qaraganda xar 0,1 punktga past bo‘lsa, 2,5 balldan olish

Bu jadvalga ko‘ra, qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida hisoblash natijalari quyidagi 6 toifaga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1-toifa (100-97 ballar) – bu guruhga kiruvchi korxonalar mutloq barqaror hamda mutloq to‘lovga layoqatli hisoblanadi. Bu korxonada o‘z majburiyatlarini bajarishga yetarli mablag‘lari mavjud; 2-toifa (96-80 ballar) – bu guruhga kiruvchi korxonalar yuqori me‘yor darajasida va moliyaviy risk darajasi minimal; 3-toifa (79-65 ballar) – bu guruhga kiruvchi korxonaning moliyaviy holati o‘rta me‘yor darajasida va yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan risk hududida joylashadi. Ma‘lum darajada qarz riskini ko‘rsatadigan, ammo hali riskli deb hisoblanmaydigan korxonalar; 4-toifa (66-37 ballar) – bu guruhga kiruvchi korxonaning moliyaviy holati qoniqarli va moliyaviy risk darajasi baland. Muammoli korxonalar; 5-toifa (36-11 ballar) – bu guruhga kiruvchi korxonalar moliyaviy holati nobarqaror. Moliyaviy sog‘lomlashtirish choralari ko‘rgandan keyin ham bankrotlik xavfi yuqori bo‘lgan korxonalar. Kreditorlar mablag‘lari va foizlarini yo‘qotish riski; 6-toifa (10-0 ballar) – bu guruhga kiruvchi korxonalar inqirozli moliyaviy holatda. Eng xavfli, deyarli nochor korxonalar.

Ushbu toifalarga ajratishning asosiy sababi, real sektor korxonalariga ta‘sir etuvchi moliyaviy risklar holatini yaqqol ko‘rish, o‘zgarish dinamikasini baholash va katta xavf tug‘diruvchi moliyaviy risklarni aniqlash hisoblanadi. Shunday qilib, real sektor korxonalarining moliyaviy risklarini integral balli tizimda baholash natijalari quyidagi jadvalda aks ettirildi: (6-jadvalga qarang)

<sup>13</sup> Л.В.Донцова. Анализ финансовой отчетности. М.: Дело и Сервис, 2004. 336– с.



Integral balli tizim orqali moliyaviy risklarini baholash<sup>14</sup>

Ko'r:	"Kvarts" AJ					"Qo'qon mexanika zavodi" AJ					"Qizilqumsement" AJ				
Yil	16	17	18	19	20	16	17	18	19	20	16	17	18	19	20
L <sub>1</sub>	5,35	7,87	10,94	0,69	0,3	0,01	0,08	0,01	0,00	0,04	1,51	2,63	5,10	7,69	0,32
Ball	20	20	20	20	12	0	0	0	0	0	20	20	20	20	12
L <sub>2</sub>	5,68	8,45	12,36	3,96	14,9	1,47	0,79	0,62	0,46	0,36	2,53	3,44	6,99	8,86	1
Ball	18	18	18	18	18	18	0	0	0	0	18	18	18	18	3
L <sub>3</sub>	9,18	11,8	18,60	5,95	17,7	1,90	1,55	1,59	1,34	1,31	5,50	7,63	11,9	8,89	4,42
Ball	16,5	16,5	16,5	16,5	16,5	15	10,5	10,5	6	6,5	16,5	16,5	16,5	16,5	16,5
U <sub>1</sub>	0,90	0,86	0,96	0,71	0,39	0,60	0,45	0,45	0,35	0,35	0,84	0,79	0,91	0,89	0,94
Ball	17	17	17	17	16,2	17	17	17	16,2	16,2	17	17	17	17	17
U <sub>2</sub>	0,88	0,82	0,95	0,51	0,19	0,47	0,35	0,37	0,24	0,25	0,73	0,64	0,84	0,93	0,77
Ball	15	15	15	15	6	15	12	12	6	9	15	15	15	15	15
U <sub>3</sub>	0,91	0,93	0,96	0,91	0,96	0,61	0,45	0,45	0,35	0,35	0,89	0,93	0,95	0,93	0,94
Ball	13,5	13,5	13,5	13,5	13,5	8,5	0	0	0	0	13,5	13,5	13,5	13,5	13,5
Σ	100	100	100	100	90,2	73,5	39,5	39,5	28,5	31,7	100	100	100	100	77
Toifa	1	1	1	1	2	3	4	4	5	5	1	1	1	1	2

Demak, yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan shu ma'lum bo'ldiki, "Kvarts" AJ va "Qizilqumsement" AJ 2016-2019 yillarda moliyaviy barqaror bo'lib, moliyaviy risk darajasi yuqori bo'lmagan holda 1 toifa guruhiga kirgan bo'lsa, 2020-yillarda pandemiyaning ta'siri ostida ushbu korxonalar 2 toifaga tushib qolgan. "Qo'qon mexanika zavodi" AJ 2016-yilda moliyaviy holati boshqa yillarga qaraganda barqaror bo'lib, 3 toifa hududiga kirgan. 2017 va 2018-yillarda moliyaviy risk darajasi yuqori bo'lgan va korxonalar 3-toifaga kirgan bo'lsa, 2019-yilga kelib, barcha ko'rsatkichlar yomonlashuvi natijasida korxonalar 5-toifa guruhiga tushib ketib nobarqaror holatga kelgan.

Tahlil qilinayotgan korxonalarning moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini quyidagi jadvalda keltirilgan (7-jadvalga qarang)

Moliyaviy barqarorlikni kamayish riski tahlili (mln.so'm)<sup>15</sup>

Ko'rsatkichlar	Yillar	ΔO'AM	ΔO'U	ΔJM	Barqarorlik	Risklilik
"Kvarts" AJ	2016	78 432	79 855	96 903	Mutloq barqaror	Risksiz hudud
	2017	112 110	132 288	150 042	Mutloq barqaror	Risksiz hudud
	2018	140 515	140 515	152 884	Mutloq barqaror	Risksiz hudud
	2019	57 024	145 237	183 827	Mutloq barqaror	Risksiz hudud
	2020	20 064	546 070	584 661	Mutloq barqaror	Risksiz hudud
"Qizilqumsement" AJ	2016	125685	180 165	298 245	Mutloq barqaror	Risksiz hudud
	2017	63 171	221 548	312 281	Mutloq barqaror	Risksiz hudud
	2018	382 520	446 425	520 935	Mutloq barqaror	Risksiz hudud
	2019	557 936	557 936	628 888	Mutloq barqaror	Risksiz hudud
	2020	422	422	141 226	Mutloq barqaror	Risksiz hudud
"Qo'qon mexanika zavodi" AJ	2016	12 158	12 536	39 077	Mutloq barqaror	Risksiz hudud
	2017	-11 873	-11 687	43 294	Nobarqaror	Kritik risk hududi
	2018	-19 664	-19 650	32 549	Nobarqaror	Kritik risk hududi
	2019	-32 053	-32 053	25 894	Nobarqaror	Kritik risk hududi
	2020	-36 458	-36 458	21 488	Nobarqaror	Kritik risk hududi

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan shular ma'lum bo'ldiki, "Kvarts" AJ va "Qizilqumsement" AJ har 5 yilgi hisobot davrida ham mutloq barqarorlik ko'rsatkichini saqlab qolgan. Bu korxonalar risksiz hududda joylashgan. "Qo'qon

<sup>14</sup> Muallif tomonidan hisoblab chiqildi.

<sup>15</sup> Korxonalar moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

mexanika zavodi” AJ o‘rganilayotgan yillar davomida nobarqaror aksiyadorlik jamiyati deb topildi, bunga moliyaviy barqarorlik riskini yuqori darajada deb hisoblash o‘rinlidir. Bu korxonalar kritik risk hududiga tushgan.

Quyidagi jadvalda o‘rganilayotgan real sektor korxonalarida balans likvidligi va riskliligini hisoblash amalga oshirilgan: (8-jadvalga qarang)

## 8-jadval

### Balans likvidligi tahlili(mln.so‘m)<sup>16</sup>


Korxonalar	Yil	Aktiv-Passiv				Likvidligi	Riskliligi
		A1- P1	A2- P2	A3- P3	A4- P4		
“Kvarts” AJ	2016	80 611	755	58 118	-137 973	Mutloq likvidlik	Risksiz hudud
	2017	121 961	10 327	39 170	-171 457	Mutloq likvidlik	Risksiz hudud
	2018	122 891	17 624	77 124	-217 639	Mutloq likvidlik	Risksiz hudud
	2019	-11 940	126 092	21 913	-134 065	Ruhsat etilgan likvidlik	Yo‘l qo‘yilishi mumkin risk
	2020	-27 093	561 619	408 307	-130 975	Ruhsat etilgan likvidlik	Yo‘l qo‘yilishi mumkin risk
“Qizilqumsement” AJ	2016	114 889	65 276	296 634	-476 799	Mutloq likvidlik	Risksiz hudud
	2017	238 371	55 428	221 254	-442 802	Mutloq likvidlik	Risksiz hudud
	2018	305 336	141 069	304 594	-751 018	Mutloq likvidlik	Risksiz hudud
	2019	305 336	141 069	350 270	-766 515	Mutloq likvidlik	Risksiz hudud
	2020	-56 607	57 029	481 241	-481 663	Ruhsat etilgan likvidlik	Yo‘l qo‘yilishi mumkin risk
“Qo‘qon mexanika zavodi” AJ	2016	-24 960	37 496	11 065	-23 601	Ruhsat etilgan likvidlik	Yo‘l qo‘yilishi mumkin risk
	2017	-50 531	38 844	41 505	-29 818	Ruhsat etilgan likvidlik	Yo‘l qo‘yilishi mumkin risk
	2018	-51 557	31 907	50 291	-30 642	Ruhsat etilgan likvidlik	Yo‘l qo‘yilishi mumkin risk
	2019	-57 918	26 647	50 715	-18 663	Ruhsat etilgan likvidlik	Yo‘l qo‘yilishi mumkin risk
	2020	-53 871	18 542	55 139	-19 811	Ruhsat etilgan likvidlik	Yo‘l qo‘yilishi mumkin risk

Yuqoridagi jadval ma‘lumotlaridan shuni ko‘rish mumkinki, “Kvarts” AJ 2016-2018 yillarda mutloq likvid va risksiz hududda joylashgan bo‘lsa, 2019-2020 yillarda korxonalar moliyaviy holati salbiy tomonga siljib, yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan risk hududiga tushib qolgan. “Qo‘qon mexanika zavodi” AJ har 5 yilda shu hudud, ya‘ni yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan hududda bo‘lgan. “Qizilqumsement” AJ 2019-yilga qadar mutloq likvikka erishib, risksiz hudud chegarasidan chiqmagan bo‘lsa, 2020-yilga kelib, yo‘l qo‘yilishi mumkin risk hududiga tushgan.

Amaliyotdan ma‘lumki, kapitallashuv darajasi real sektor korxonalarini faoliyat samaradorligini baholovchi muhim indikatorlardan bo‘lib hisoblanadi. Chunki, kapitallashuv darajasi yuqori bo‘lgan korxonalar moliyaviy jihatdan barqaror va moliyaviy risk darajasi minimal tarzda ushlab kelinayotganligidan dalolat beradi. Kapitallashuv darajasiga esa, korxonalar tomonidan emissiya qilinayotgan aksiyalar miqdori va narxi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir etuvchi omil bo‘lib hisoblanadi. Aksiya kurslaridagi har qanday o‘zgarish korxonalar moliyaviy holatidagi o‘zgarishga ta‘sirchan javob qaytaradi. Aksiya va risk o‘rtasidagi bog‘liqlikni dunyo amaliyotida CAPM va VaR metodlaridan foydalaniladi.

O‘rganilayotgan korxonalarda  $\beta$ -koeffisienti quyidagi ko‘rinishga ega ekanligini ko‘rish mumkin: (2-rasmga qarang)

<sup>16</sup> Muallif tomonidan hisoblab chiqildi.



**2-rasm. Beta koeffitsienti<sup>16</sup>**

Demak, hisob kitoblarga ko‘ra, o‘rganilayotgan yillar davomida ushbu real sektor korxonalari aksiyalari konservativ investorlar tomonidan boshqariladi. Bu to‘xtamga sabab, beta koeffitsienti 0 va 1 orasida tebrangan, bu esa aksiyadan daromadlik va risk darajasi pastligidan dalolat beradi. Faqat 2019 yilda “Qizilqumsement” AJ da aksiyalarning daromadi bozor kursining o‘zgarishi bilan teskari bog‘liqdaligini ko‘rish mumkin, u -0.002 koeffitsientni tashkil etgan. Bu korxonada 2018-yilda aksiya kurslari tushishni boshlaganligi sababli, beta koeffitsienti 0.4% ga pasaygan. Umuman olganda, bu korxonada yillar davomida aksiya kurslari pasayib borgan, shu sababli beta koeffitsienti ham past ko‘rsatkichga ega bo‘lgan.

Shunday qilib, o‘rganilayotgan korxonalarining 2016-2020 yillar uchun CAPM modeli formulasida foydalanadigan barcha ko‘rsatkichlarni hisoblandi va quyidagi natijalar vujudga keldi: (9-jadvalga qarang)

**9-jadval**

**Korxonalarni moliyaviy risklarini CAPM modeli orqali baholash<sup>17</sup>**

AJ	$r_f$	$\tilde{r}_m$	$\beta$	CAPM
“Kvarts”AJ	14%	-0,0414%	0.01035	13,8547%
“Qizilqumsement” AJ			0.00523	13,9265%
“Qo‘qon mexanika zavodi” AJ			0.00997	13,8599%

Yuqoridagi jadvaldan shuni bilish mumkinki, o‘rganilayotgan real sektor korxonalarining barchasida CAPM modeli bo‘yicha aksiya daromadliligi risksiz stavka atrofida tebranadi. Demak, birinchidan, ushbu korxonalar daromadliligi baland emas; ikkinchidan, bozor daromadligi keskin o‘zgarishlarga uchramagan. Chunki, bu ko‘rsatkich risksiz stavkadan qancha katta bo‘lsa, aksiya daromadliligi ham kattaligini bildiradi. Xulosa qilib aytish mumkinki, CAPM modelini fond bozori endigina rivojlanayotgan mamlakatlarda qo‘llanishi unchalik ham samarali usul emas ekan.

VaR modeli formulasidan foydalangan holda, o‘rganilayotgan korxonalar misolida 2016-2020 yillar ma‘lumotlari asosida hisoblab chiqib quyidagi natijalarga ega bo‘ldik: (10-jadvalga qarang)

<sup>17</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

VaR modeli orqali baholash<sup>18</sup>

Ko'rsatkich	"Kvarts" AJ	"Qizilqumsement" AJ	"Qo'qon mexanika zavodi" AJ
$E$	0,06%	0,08%	0,00%
$\sigma$	5,57%	3,62%	3,61%
$\alpha$	-12,91%	-8,34%	-8,41%
$P_{(t+1)}$	2770,47	3573,67	997,46
$P_{(t+5)}$	2263,03	3171,56	730,83
$VaR(t+1)$			
nisbiy	-13,82%	-8,71%	<b>10,28%</b>
mutloq	-410,52	-325,32	97,46
$VaR(t+5)$			
nisbiy	-34,05%	-20,65%	-20,82%
mutloq	-917,96	-727,43	-169,17

